RAQAMLI MULOQOTDA MILLIY VA MADANIY KODLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Juraeva Zamiraxon Quchqarboevna
Farg‘ona davlat texnika universiteti, assistent.
Zamiraxon0880@gmail.com, +998337660828
Ergasheva Dilnora Abdunabijon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti, talaba.
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20257419

Annotatsiya: Ushbu maqola internet muloqotida milliy va madaniy tushunchalarning ifodalanishi, ularning transformatsiyasi va saqlanish masalalarini o‘rganadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji bilan an’anaviy madaniy chegaralarning o‘zgarishi, onlayn identifikatsiyaning shakllanishi va raqamli muhitda milliy o‘zlikni saqlash muammolari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: internet muloqot, milliy tushunchalar, madaniy identifikatsiya, raqamli kommunikatsiya, onlayn identifikatsiya, madaniy kodlar, virtual muloqot.

Abstract: This article examines the expression of national and cultural concepts in internet communication, as well as the issues of their transformation and preservation. It analyzes the changes in traditional cultural boundaries driven by the development of modern information and communication technologies, the formation of online identity, and the challenges of preserving national identity in the digital environment.

Key words: internet communication, national concepts, cultural identity, digital communication, online identity, cultural codes, virtual communication.

Kirish

XXI asrda axborot-komunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyat jamiyatida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot almashinuvining yangi vositalarini yaratdi, balki an’anaviy muloqot chegaralarini ham tubdan o‘zgardi. Odamlar endi geografik masofalar, milliy chegaralar va madaniy to‘siqlardan qat’i nazar, real vaqt rejimida muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – zamonaviy raqamli muhitda an’anaviy madaniy qadriyatlarning qanday o‘zgarayotganini, qanday yangi shakllarda namoyon bo‘layotganini va bu jarayonda qanday muammolar yuzaga kelayotganini ochib berishdan iborat.

Asosiy qism.

Internet muloqotining eng muhim xususiyatlaridan biri – uning anonimlik va identifikatsiyani tanlash imkoniyatini berishidir. An’anaviy, real hayotdagi muloqotda insonning milliy va madaniy mansubligi ko‘pincha uning tashqi ko‘rinishi, kiyinish uslubi, tili va xulq-atvorida namoyon bo‘ladi. Virtual muhitda esa foydalanuvchi o‘zining raqamli identifikatsiyasini qisman yoki to‘liq o‘zi yaratishi mumkin .

“Raqamli identifikatsiya tushunchasi internet foydalanuvchilarining o‘zini ifodalash usullari, ijtimoiy tarmoqlarda tilning o‘zgarishi, emoji va qisqartmalarning nutq madaniyatiga ta’siri kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Virtual muhitda identitetning ijtimoiy va madaniy jihatlari yangicha talqin qilinadi. Masalan, foydalanuvchi o‘z profilida milliy atributlarni (milliy bayroq,

an’anaviy libosdagi surat, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi maqom) joylashtirishi yoki aksincha, milliy mansubligini yashirishi mumkin.”[1]

Bu ikki tomonlama imkoniyat internet muloqotida milliy tushunchalarning ifodalanishiga ziddiyatli ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, global miqyosda milliy chegaralarning kengayishi jarayoni yuz beradi. Ikkinchi tomondan, aynan internet orqali milliy o‘zlikni namoyish qilishning yangi imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Kichik va kam sonli xalqlar vakillari o‘z madaniyatini butun dunyoga namoyish qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda .

Til – milliy va madaniy tushunchalarni ifodalovchi eng muhim vositadir. Internet muloqoti o‘zining tezkorligi, qisqaligi va pragmatikligi tufayli tilning yangi shakli – “og‘zaki-yozma” nutqni vujudga keltirdi. M.Ne’matova ushbu hodisani quyidagicha tavsiflaydi: “Internet nutqi, vizual tekstual shaklga qaramasdan, bunday nutq yuqori darajadagi implikativlik, situatsionlik va to‘liqsizlik bilan xarakterlanadi.”

Internet muloqotida tilning soddalashuvi, qisqartmalarning ko‘payishi, emoji va memlarning keng qo‘llanishi kuzatilmoqda. Bu esa, bir tomondan, muloqotni tezlashtirsa, ikkinchi tomondan, madaniy kodlarning uzatilishini murakkablashtiradi.

“Idiomalar ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan turg‘un iboralar sifatida madaniy kontekstlarda chuqur ildiz otgan bo‘lib, ularning to‘g‘ri tushunilishi uchun ma’lum bir madaniyatga mansublik talab etiladi . Misol uchun, o‘zbek tilidagi **“qozoning qorasi”** kabi iboralarni boshqa tillarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish ularning madaniy ma’nosini yo‘qotadi.”[2]

Shu nuqtai nazardan, internet muloqotida translanguaging – bir necha til resurslaridan fleksibillik bilan foydalanish hodisasi keng tarqalmoqda. Foydalanuvchilar o‘z ona tilidagi elementlarni boshqa tildagi matnga qo‘shib, gibrid tilli ifoda shakllarini yaratmoqda.

Virtual madaniyatlararo muloqot bir qator to‘siqlar bilan bog‘liq. M.Ne’matova[3] quyidagi asosiy muammolarni keltirib o‘tadi:

1. **Anonimlik va autentiklik muammosi** – avatar, niknem va boshqa virtual identifikatsiya vositalari haqiqiy shaxs bilan kam umumiylikka ega bo‘lgan hayoliy obraz yaratish imkonini beradi .

2. **Bevosita muloqotning psixologik to‘siqlari** – real vaqt rejimidagi videomuloqot real shaxslararo muloqotning deyarli mukammal analogi bo‘lsa-da, uning bilvositaligi tufayli ma’lum psixologik to‘siqlar yuzaga keladi .

3. **Madaniy kodlarning farqliligi** – bir madaniyatda ijobiy ma’noga ega bo‘lgan belgi, ramz yoki harakat boshqa madaniyatda salbiy qabul qilinishi mumkin.

Xulosa.

Internet muloqotida milliy va madaniy tushunchalarni ifodalash masalasi murakkab va ko‘p qirralidir. Transformatsiya va moslashuv – an’anaviy milliy va madaniy tushunchalar raqamli muhitda o‘zgaradi, yangi shakllarga ega bo‘ladi, biroq butunlay yo‘qolib ketmaydi.

Global va lokal o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, milliy madaniy merosni raqamli muhitda uzatish va saqlashning samarali modellarini ishlab chiqish – ushbu sohadagi tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Polvonniyozova M. Raqamli identifikatsiya va onlayn muloqot tili. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika, 3(3), 43–48, 2025.

---

[1] Polvonniyozova M. Raqamli identifikatsiya va onlayn muloqot tili. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika, 3(3), 43–48, 2025.

[2] Ro‘ziboyev K. Til tizimi va kommunikatsiyadagi idiomalarning roli. Наука и технология в современном мире. 3(9), 27–29, 2024.

[3] Ne’matova M. Virtual intercultural communication. Язык и культура. Перевод, 1(1), 185–188, 2023.

2. Ne’matova M. Virtual intercultural communication. Язык и культура. Перевод, 1(1), 185–188, 2023.
3. Ro‘ziboyev K. Til tizimi va kommunikatsiyadagi idiomalarning roli. Наука и технология в современном мире, 3(9), 27–29, 2024.
4. Jurayeva Z.Q. “Improving listening skills at preschools and primary schools”. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Fergana, 2022. 230-232 pages.
5. Z.Q.Jurayeva. “Til o‘rganish aspektlari”. Scientific journal of the Fergana State University, 2023
6. Z.Q.Jurayeva. “Harnessing technology in education: innovative teaching tools and strategies”. Conference on Digital Innovation:" Modern Problems …, 2023
7. Z.Q.Jurayeva. “Improving listening skills at preschools and primary schools”. Fergana. International conference. The actual issues of …, 2022.